


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA TURIZM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“Tasdiqlayman”

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.v.b.

E.U. Shermanov



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

60112400–Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi))
ta'lim yo'nalishi uchun

- 1.Vokal fanidan
2. Musiqiy-nazariy fanlardan

Toshkent – 2023

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023-yil _____-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

S.X.Muzafarova – O'zDSMI "Vokal" kafedrası kafedrası mudiri, dotsent;

D.M.Malikova – O'zDSMI "Vokal" kafedrası dotsenti.

Taqrizchilar:

Q.T.Mirzayev – O'zDSMI "Vokal" kafedrası professori;

S.P.Kadirova – O'zDK "Akademik xor dirijorligi" kafedrası dotsenti.

Kirish

60112400—Professional ta'lim (60211900—Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi) bakalavrlk ta'lim yo'nalishiga o'qishga kiruvchi abituriyentlarning kirish kasbiy (ijodiy) imtihonlari "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalari"ga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi, har bir Oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalari ko'rsatiladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga hujjat topshirgan abituriyentlarga imtihonlar oldidan konsultatsiyalar o'tkaziladi.

Konsultatsiyalarning maqsadi – qabulning qoidalari, shartlari bilan tanishtirish, shu oliy o'quv yurtida o'qishni xohlovchilarning qobiliyatini va tayyorgarlik darajasini aniqlashdan iboratdir. Konsultatsiyalar mobaynida pedagoglar abituriyentlarga tanlagan ixtisosiga qarab o'z tavsiyalarini beradilar, vokal fanidan kuylanadigan va musiqiy-nazariy fanlar haqida ma'lumotlar beradilar.

Fanning maqsadi va vazifalari

60112400—Professional ta'lim (60211900—Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi)) bakalavr ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihonlar abituriyentlarning vokal va musiqiy-nazariy fanlardan ijodiy-amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

"Vokal ijrochiligi" yo'nalishida o'qitishdan maqsad, professional vokal malakalarini tarbiyalab, vokal san'ati rivojiga hissa qo'sha oladigan, vokal-xor fanlaridan malakali bilim bera oladigan, vokal jamoalariga rahbarlik qila oladigan kadrlar yetishtirishdir.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan qo'yilgan talablarni bajaradilar:

Vokal fani bo'yicha

Vokal ijrochiligidan o'tkaziladigan ijodiy imtihon talablari abituriyentlarning musiqa maktablari, ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at kollejarida olgan bilimlari asosida tashkil topgan.

Vokal faniga qo'yiladigan talablar:

- 3 ta asar kuylash bilan o'zining ijrochilik mahoratini ko'rsatib berishi;
- ushbu asarlarni tahlil qilib berishi;
- ijro etilgan asarlarning mualliflarining ijodiy faoliyatini bilishi;
- mashhur vokalistlar ijodi haqida bilishi;

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023-yil _____-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

S.X.Muzafarova – O'zDSMI "Vokal" kafedrası kafedrası mudiri, dotsent;

D.M.Malikova – O'zDSMI "Vokal" kafedrası dotsenti.

Taqrizchilar:

Q.T.Mirzayev – O'zDSMI "Vokal" kafedrası professori;

S.P.Kadirova – O'zDK "Akademik xor dirijorligi" kafedrası dotsenti.

Kirish

60112400–Professional ta'lim (60211900–Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi) bakalavrlık ta'lim yo'nalishiga o'qishga kiruvchi abituriyentlarning kirish kasbiy (ijodiy) imtihonlari "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidaları"ga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imihon o'tkazilishining ketma-ketligi, har bir Oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidaları ko'rsatiladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga hujjat topshirgan abituriyentlarga imtihonlar oldidan konsultatsiyalar o'tkaziladi.

Konsultatsiyalarning maqsadi – qabulning qoidaları, shartlari bilan tanishtirish, shu oliy o'quv yurtida o'qishni xohlovchilarning qobiliyatini va tayyorgarlik darajasini aniqlashdan iboratdir. Konsultatsiyalar mobaynida pedagoglar abituriyentlarga tanlagan ixtisosiga qarab o'z tavsiyalarini beradilar, vokal fanidan kuylanadigan va musiqiy-nazariy fanlar haqida ma'lumotlar beradilar.

Fanning maqsadi va vazifalari

60112400–Professional ta'lim (60211900–Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi)) bakalavr ta'lim yo'nalishida ijodiy imihonlar abituriyentlarning vokal va musiqiy-nazariy fanlardan ijodiy-amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

"Vokal ijrochiligi" yo'nalishida o'qitishdan maqsad, professional vokal malakalarini tarbiyalab, vokal san'ati rivojiga hissa qo'sha oladigan, vokal-xor fanlaridan malakali bilim bera oladigan, vokal jamoalariga rahbarlik qila oladigan kadrlar yetishtirishdir.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan qo'yilgan talablarni bajaradilar:

Vokal fani bo'yicha

Vokal ijrochiligidan o'tkaziladigan ijodiy imihon talablari abituriyentlarning musiqa maktablari, ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at kollejlari olgan bilimlari asosida tashkil topgan.

Vokal faniga qo'yiladigan talablar:

- 3 ta asar kuylash bilan o'zining ijrochilik mahoratini ko'rsatib berishi;
- ushbu asarlarni tahlil qilib berishi;
- iro etilgan asarlar mualliflarining ijodiy faoliyatini bilishi;
- mashhur vokalistlar ijodi haqida bilishi;

- asarlarda uchraydigan ijrochilik talqini bilan bog'liq bo'lgan og'zaki savollarga javob berishi kerak.
Asarlarning turli xususiyat va ijro sur'atiga ega bo'lishi ijrochi imkoniyatlarining to'laroq namoyon bo'lishiga yordam beradi.

Musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha

Musiqiy-nazariy fanlarga qo'yiladigan talablar:
- turli tonalliklarda hamda berilgan tovushlardan intervallar tuzishi;
- akkordlar va septakkordlar tuzishi va kuyilashi;
- solfedjiodan 1 ovozli mashqlarni kuyilashi;
- xalq ladlarini tuzishi va kuyilashi;
- fortepiano uchun yozilgan 1 ta asarni ijro etishi;
- 2 ta turli o'lchov va ijro sur'atiga ega bo'lgan musiqiy asarlarga fortepiano jo'rligida dirijorlik qilishi;
- ushbu asarlarni fortepiano ijro etib, ovoz partiyalarini kuyilab berishi;
- og'zaki savollarga javob berishi kerak.
Og'zaki savollar musiqa nazariyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Vokal fanidan o'tkaziladigan ijodiy imtihonda 3 ta turli xususiyatga ega asarlar abituriyentning ijro imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qilishi kerak;
- vokal asarlarining uchta ham fortepiano jo'rligida ijro etilishi;
- vokal asarlarida ijro sur'atining to'g'ri talqin qilinishi;
- asarlar ijrosida shtrixlar (legato, stakkato, markato) va dinamik tuslarning aniq kuyilinishi;
- vokal asarlari ijrosi jarayonida konsertmeyster bilan uyg'unlikda kuyilinishi kerak.

Musiqiy-nazariy fanlaridan kirish imtihonida abituriyent turli tonalliklarda hamda berilgan tovushlardan intervallar, akkordlar va septakkordlar, xalq ladlarini tuzib, solfedjiodan 1 ovozli mashqlarni kuyilab berishi, fortepiano uchun yozilgan 1 ta asarni ijro etishi, 2 ta turli o'lchov va ijro sur'atiga ega bo'lgan musiqiy asarlarga fortepiano jo'rligida dirijorlik qilishi, ushbu asarlarni fortepiano ijro etishi, ovoz partiyalarini kuyilashi va og'zaki savollarga javob berishi lozim.

Musiqiy-nazariy fanlar uchun qo'yiladigan talablar:

- intervallar, akkordlar va septakkordlar tuzishi;
- major, minor, xalq ladlarini bilishi va kuyilashi;
- solfedjiodan 1 ovozli mashqlarni kuyilashi;
- fortepiano uchun yozilgan 1 ta asarni (sonata, invenziya) ijro qilishi;
- jo'rsiz (a'kapella) xor asarini dirijorlik qilishi (1 ta);

- jo'rli xor asarini dirijorlik qilishi (1 ta);
- jo'rsiz xor asarini (a kapella) fortepiano ijro qilishi;
- ovoz partiyalarini (gorizontal), akkordlarni (vertikal) kuyilashi;
- jo'rli asarning xor partiturasini fortepiano ijro etish va ovoz partiyalarini kuyilashi kerak.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda bajarilgan ijodiy ish quyidagi mezon asosida baholanadi

Vokal

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Abituriyentning tashqi ko'rinishi, odobi va muomala madaniyati	5
2.	Vokal asarlarining ijro sur'ati, sifati va to'g'ri talqini (3 ta)	10
3.	Vokal ovozining to'g'ri qo'yilganligi	15
4.	Asarlar ijrosida shtrixlar va dinamik tuslarning aniq ifodalanishi	10
5.	Vokal asarlari ijro jarayonida konsertmeyster bilan uyg'unlik	15
6.	Ijro davomida ovoz kuchining to'g'ri taqsimlanishi	10
7.	Ijro texnikasining shakllanganligi, diapazon kengligi	15
8.	Ijro dasturlarining barcha talablar asosida to'liq shakllanganligi	13
	Jami:	93

Musiqiy-nazariy fanlar

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Abituriyentning tashqi ko'rinishi, odobi va muomala madaniyati	5
2.	Intervallar, akkordlar, septakkordlar haqida bilish, berilgan tonalliklar hamda tovushlardan ularni tuzish va kuyilash	10
3.	Major, minor, xalq ladlarini bilish va kuyilash	10
4.	Solfedjiodan 1 ovozli mashqlarni kuyilash	10
5.	Fortepiano uchun yozilgan asarni (sonata, invenziya) ijro qilish (1 ta)	10
6.	Jo'rsiz (a'kapella) xor asarini dirijorlik qilish, fortepiano ijro etish va ovoz partiyalarini kuyilash (1 ta)	10
7.	Jo'rli asarni dirijorlik qilish, fortepiano ijro etish va ovoz partiyalarini kuyilash (1 ta)	8
	Jami:	63

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60112400-Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga xujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunda vokal va musiqiy-nazariy fanlar mutaxassislaridan iborat yagona ijodiy imtihon oluvchi xay'at a'zolari guruhiga ijodiy imtihon topshiradi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 30 nafar abituriyentlardan iborat bo'lib, ijodiy imtihon guruhlar bo'yicha o'tkaziladi va har bir abituriyent uchun 30 daqiqadan 1 soatgacha vaqt ajratiladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar maxsus auditoriyalarda bo'lib o'tadi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilinishi mumkin. Murojaat mazmuni faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbaalari

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017-yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017-yil.
5. Shukurov J. Dirijyorlik, O'quv qo'llanma - Toshkent. 2006 y.
6. Malikova D. Vokal, O'quv qo'llanma Toshkent, 2019 y.
7. Pirmatov Sh. Xonandalik san'ati, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2011 y.
8. Malikova D. Xor sinfi. Darslik "Fan ziyosi", Toshkent, 2021 y.
9. Shomaxmudova V. Xor lug'ati, Toshkent, "Musiqqa", 2009 y.
10. Романовская Н. Хоровой словарь, Изд.3. Учебное пособие, Ленинград, Музыка, 1980 г.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Vokal" kafedrasidan 2023-2024-o'quv yilida
60112400-Professional ta'lim

(60211900-Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi
abituriyentlarining kasbiy (ijodiy) imtihonlarini o'tkazish uchun
tuzilgan dasturga
TAQRIZ

Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim tizimiga bo'lajak talabalarni o'qishga qabul qilish uchun abituriyentlardan ijodiy imtihonlar qabul qilish va mutaxassislik fanlaridan musiqa ijrochilik san'atini egallaganligini aniqlash maqsadida kafedra ijodiy (kasbiy) imtihonlarini o'tkazish bo'lajak pedagog kadrlarni kasbiy sohada bilim va malakalarini aniqlashda muhim hisoblanadi.

60112400-Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi) ta'lim yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlar abituriyentlarning vokal va musiqiy-nazariy fanlaridan amaliy va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha o'tkaziladi. Jumladan, vokal ijrochiligidagi ijrochilik mahoratini badiiy ijro orqali uch xil asarlarda namoyish etish, musiqiy-nazariy fanlarida musiqiy asurlarni tahlil qilish, solfejjo kuylash tavsifi aniq belgilangan.

Dasturdan joy olgan fanlar bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar o'rta umumta'lim maktablari va kasb hunar kollejlarning DTS va namunaviy dasturlari asosida o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan davlat talablari asosida tuzilgan hamda davlat talablariga mos keladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib 60112400-Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi) ta'lim yo'nalishi) sohasida OTMga kirish uchun tuzilgan mazkur dasturni amaliyotga tavsifiya etaman.



O'ZDSMI "Vokal" kafedrasini professori

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Vokal" kafedrasidan 2023-2024 o'quv yilida
60112400-Professional ta'lim
(60211900-Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi)) bakalavriat ta'lim yo'nalishida
abituriyentlardan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish uchun
tuzilgan dasturga
TAQRIZ

Respublikamizdagi qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va kadrlar tayyorlash milliy dasturida bo'lajak mutaxassislarni jahon andozalari darajasida tayyorlash ko'zda tutilgan. Buning uchun oliy ta'limning bakalavriat ta'lim tizimida abituriyentlardan ijodiy imtihonlar qabul qilish va mutaxassislik fanlaridan musiqa ijrochilik layoqatini aniqlash maqsadida kafedralarda ijodiy (kasbiy) imtihonlarni o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 18-iyundagi 118-son qaroriga "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom va hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlarini "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalari"ga muvofiq tashkilashtiriladi.

Jumladan, 60112400-Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi)) bakalavriat ta'lim yo'nalishida vokal va musiqiy-nazariy fanlari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasi baholanadi. Bunda vokal ijrochiligida kuylash mahoratini badiiy ijro orqali uch xil asarlarda namoyish etish, dirijyorlik fanida musiqiy asarlarni his qilish va musiqiy-nazariy fanlarida musiqiy asarlarni tahlil qilish, solfedjo kuylash tavsifi aniq belgilangan.

Dasturdan joy olgan fanlar bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar o'rta umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarning DTS va namunaviy dasturlari asosida o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan davlat talablari asosida tuzilgan hamda davlat talablariga mos keladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, 60112400-Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi)) bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun mutaxassislik fanidan tayyorlangan ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonini amaliyotga tavsiya etaman.

O'zDK "Akademik xor dirijorligi"
kafedrasida dotsenti



S.P. Kadirova